

INGLIZ TILI DARSLARIDA O`QUVCHILARNING OG`ZAKI NUTQINI SHAKLLANTIRISH

Fayzullaeva Yulduz Aybergenovna

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xojayli tumani pedagogika kolleji

Ingliz tili fani oqituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilining barcha grammatik shakllarini qancha erta o'zlashtirsa, u aqliy jihatdan ham, nutqiy jihatdan ham shunchalik tez rivojlanishi haqida, bola nutqida grammatik xatolarni dars jarayonida yetarli ovoz tonida, boshqa o'quvchilarga ham eshitarli qilib to'g'rilash kerakligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ingliz tili, o'qitish, o'rgatish, shakllantirish, to'g'irlash, nutq, muloqot, o'quvchi, o'qituvchi.

Ingliz tili darslarida lug'at bilan ishlash juda muhim bo'lib, o'qituvchi o'quvchilarga o'rtoqlari bilan ingliz tilida nutqiy muloqotga kirishib keta olishiga yordam beradi, hamda diologik nutq yordamida ular nutqiga kiritib boradilar. O'quvchilarni so'zlarning tarjimasini tushunishga o'rgatibgina qolmay, balki bu so'zlarni nutqlarni faol ishlatishga ham odatlanib boradilar. Lug'at tilning qurilish materialini hisoblanadi. Grammatika esa gapda so'zlarning o'zgarishi va ularning bog'lanish usullarini belgilaydi. Bundan tashqari, grammatika tilning qurilish modelini (so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi) belgilaydi.

O'quvchi ingliz tilining barcha grammatik shakllarini qancha erta o'zlashtirsa, u aqliy jihatdan ham, nutqiy jihatdan ham shunchalik tez rivojlanadi. Agar o'quvchida nutqning grammatik tomoni noto'g'ri shakllansa, aqliy rivojlanishi kechikadi. O'qituvchi har bir mashg'ulot va o'yin turlarida bolalar nutqidagi grammatik xatolarni tuzatishi kerak. O'z vaqtida tuzatilmagan grammatik xato bola nutqida mustahkamlanib, uni tinglayotgan boshqa bolalar nutqida ham grammatik xatolarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Biroq maxsus tashkil etiladigan o'yinlarda bola nutqidagi u yoki bu salbiy jihatlarni ogohlantirish bo'yicha ish olib, bola nutqida paydo bo'lgan grammatik hatolarni o'z vaqtida bartaraf etish lozim.

Bola nutqida grammatik xatolarni dars jarayonida etarli ovoz tonida, boshqa o'quvchilarga ham eshitarli qilib to'g'rilash kerak. O'quvchilarni grammatik to'g'ri gapirishga o'rgatish bilan bir qatorda nutqning tovush madaniyati ham o'rgatish lozim. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, chet tillarini o'rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratib berildi. Prezidentimiz aytganlaridek,

“Hozirgi paytda xorijiy tillarni o‘rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyati o‘ziga munosib o‘rin egallashga intilayotgan mamlakatlarimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o‘z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni

mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo‘qdir”. Ushbu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan “Chet tillarini” o‘rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Qarori chet tillarini o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Ta‘lim tizimida o‘quvchilarning nafaqat keng bilim va professional malakalarni egallashi, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitishning ilg‘or uslublarini joriy etish yo‘li bilan, o‘sib kelayotgan yosh avlodga chet tillarni o‘qitish, shu tillarda erkin muloqot qila oladigan mutaxassislarni tayyorlash hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlaridan keng ko‘lamda foydalanishlari, ulkan intellektual boylikni egallashlariga katta imkoniyatlar yaratiladi.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integrastiyalashuvi, fan texnika va texnologiyaning rivojlanishi yosh avlodning ko‘p madaniyatli dunyoda raqobatbardosh bo‘lishi bir necha chet tillarni mukammal egallashni taqozo etadi, bu esa O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimiga chet tillarni o‘rgatish bo‘yicha xalqaro standartlarni joriy etish orqali ta‘minlanadi.

O‘yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o‘quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Psixologlarning ta‘kidlashlaricha, o‘yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, hayotda barqaror o‘rnini topish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o‘yin zamirida umumiy qabul qilingan ta‘lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O‘quv o‘yinlariga o‘quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O‘yinlar jarayonida o‘quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg‘ulotga qiziqibroq yondashadi va bemalol faoliyat ko‘rsatadi. Ta‘kidlash lozimki, o‘yin eng avallo, o‘qitishning bir usulidir. O‘quvchilar o‘yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g‘alaba qozonishga intiladilar, o‘qituvchi ular orqali o‘quvchiga ta‘lim-tarbiya ham beradi. O‘quvchi inglizcha o‘yin o‘ynab, gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb ishonadi, qiziqadi [2]. Biz bilamizki, hozirgi ta‘lim jarayonida o‘quvchi sub‘ekt bo‘lishi lozim. Bunda ko‘proq interfaol metodlarga e‘tiborni qaratish ta‘lim samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdaqi «CHet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1875-sonli qarori.
2. Iriskulov A.T va boshqalar Kids' English pupil's book 2sinf –Toshkent —O'zbekiston;2014
3. Xoshimov O'. Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. T., - 2003

